

SHARTNOMA: Kafolat berish № _____

Toshkent sh.

« ____ » _____ 20__ y.

«Tenge Bank» Aksiyadorlik tijorat banki, bundan keyin «Kafil» deb yuritiluvchi, Boshqaruv Raisining Birinchi o'rinbosari Xakimov Sh.X. timsolida, 2020-yil 28-dekabrda №29-sonli Ishonchnoma asosida ish yurituvchi, bir tomondan, va _____, bundan keyin «Prinsipal» deb yuritiluvchi, Direktor _____ timsolida, _____ asosida ish yurituvchi, ikkinchi tomondan, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma tomonlarning bank kafolatini berish bo'yicha o'zaro munosabatlarini tartibga soladi (bundan keyin – «Kafolat»).

1.2. Ushbu shartnomaga muvofiq Kafil Prinsipalning topshirig'iga ko'ra _____ (Benefitsiar) foydasiga Prinsipal va Benefitsiar o'rtasida tuzilgan _____ dagi № _____-sonli Shartnoma bo'yicha Prinsipalning _____ (to'lov/shartnoma va h.k.) majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida, _____ sotib olish uchun (bundan keyin «Asosiy majburiyat») mukofot evaziga _____ (to'lov / majburiyatlarni bajarish / avans to'lovini qaytarish) kafolatini beradi. Kafolat matni ushbu shartnomaga 1-ilovada keltirilgan va uning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.3. Chiqariladigan kafolat shartlari:

Prinsipal: _____

Benefitsiar: _____

Kafil: _____

Kafolatning turi va maqsadi: _____

Kafolatning umumiy summasi: _____ (Raqamlarda va so'z bilan, valyuta)

Kafolatning amal qilish muddati: _____

1.4. Prinsipal Kafilga kafolat bilan bog'liq yuzaga kelgan va amalga oshirilgan barcha to'lovlar, xarajatlar, shu jumladan Kafilning barcha komissiyalari va xarajatlarini to'liq qoplash bo'yicha qaytarib olib bo'lmaydigan va so'zsiz majburiyatni oladi.

1.5. Ushbu shartnoma bo'yicha chiqariladigan kafolat Xalqaro savdo palatasining 2010-yil tahriridagi № 758-sonli talab bo'yicha kafolatlar uchun Unifikatsiyalashgan qoidalariga bo'ysunadi.

1.6. Kafolat u chiqarilgan kundan kuchga kiradi.

1.7. Kafolatning amal qilishi quyidagi hollarda tugaydi:

- Kafolat berilgan summani Benefitsiarga to'lash bilan;
- Kafolatda belgilangan, u berilgan muddatning tugashi bilan;
- Benefitsiarning Kafolat bo'yicha o'z huquqlaridan voz kechishi va uni Kafilga qaytarishi natijasida;
- Benefitsiarning Kafilni o'z majburiyatlaridan ozod qilish to'g'risidagi yozma arizasi orqali Kafolat bo'yicha o'z huquqlaridan voz kechishi natijasida.

2. TOMONLARNING TASDIQLASHI VA KAFOLATLASHI

2.1. Tomonlar ushbu shartnomaning barcha shartlari ikkala tomon tomonidan kelishilganligini va ularning huquq va manfaatlarini cheklamasligini tasdiqlaydilar. Ushbu shartnoma o'z ixtiyori bilan va anglagan holda imzolangan, huquqiy oqibatlar ma'lum va tushunarli, shartnoma matni bilan tanishilgan, mazmuni aniq, ushbu shartnoma tuzilgan tilga nisbatan da'volari yo'q, bu tomonlar tomonidan shartnomaning imzolanishi bilan tasdiqlanadi. Bunda tomonlar va shartnomani imzolovchi shaxslar bir-biriga ular buning uchun barcha tegishli vakolatlariga ega ekanliklarini bayon qiladilar.

2.2. Prinsipal quyidagilarni kafolatlaydi va tasdiqlaydi:

- u O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bo'yicha lozim darajada tashkil etilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxs hisoblanadi;
- ushbu shartnomaning tuzilishi va uning barcha shartlari, uning bajarilishi Prinsipalning ta'sis hujjatlariga zid emas;
- ushbu shartnomani imzolovchi Prinsipalning vakolatli shaxslari ushbu shartnomani imzolash huquqiga ega, va ular bu huquqni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganlar;
- Kafilga taqdim etilgan barcha moliyaviy ma'lumotlar va hujjatlar haqiqiy va Prinsipalning moliyaviy holatini aks ettiradi;

- ushbu shartnomani tuzishga tegishli boshqaruv organining roziligi olingan;

2.3. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z talablarini qondirish uchun Kafil Prinsipalning istalgan hisobvaraqlaridan mablag'larni mustaqil va so'zsiz hisobdan chiqarishga haqli.

3. KAFOLAT BERISH UCHUN TO'LOV KAFOLAT BO'YICHA TO'LANGAN MABLAG'LARNI QOPLASH TARTIBI

3.1. Kafolat berganlik uchun Prinsipal Kafilga ushbu shartnoma summasining ___ % (so'z bilan) foizi miqdorida komissiya to'laydi, bu _____ (so'z bilan) ni tashkil etadi. Mazkur komissiya kafolat berilgunga qadar bir yo'la to'lov bilan to'lanadi va operatsiya o'tkazilgan kunda belgilangan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. Kafolat amal qilish muddati muddatidan oldin tugatilganda komissiya mukofotlari qayta hisoblanmaydi va to'langan komissiya summaları qaytarilmaydi.

3.2. Prinsipal, shuningdek, Kafilning Kafolat berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda ko'rgan barcha xarajatlarini qoplaydi. Bunda ushbu bandda nazarda tutilgan Kafilning barcha xarajatlarini kompensatsiya qilish Kafil mazkur komissiyalar va xarajatlarni to'lagan sanadan kechiktirmay amalga oshiriladi.

3.3. Kafilning har qanday komissiyalari, shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan Kafilning komissiya va xarajatlari Prinsipal tomonidan to'lanadi yoki Kafil tomonidan Prinsipalning barcha hisobvaraqlaridan bir tomonlama (akseptsiz) tartibda Kafolat valyutasida va/yoki O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda to'lov amalga oshirilgan kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha undiriladi.

3.4. Agar Benefitsiar to'lashdan bosh tortsa, Kafolatda boshqacha tartib belgilangan bo'lsa ham, Prinsipal Kafilning komissiyalari va xarajatlarini to'laydi.

3.5. Prinsipal Kafilning Benefitsiar tomonidan Kafolat bo'yicha talab qo'yilganligi to'g'risidagi xabarnomasini olganidan so'ng 3 (uch) bank kuni ichida Benefitsiarning Kafilga talablar qo'yishiga va Kafolatni ijro etish zaruratiga olib kelgan vaziyat va sabablarni tushuntiruvchi zarur ma'lumot va hujjatlarni (Kafilning so'roviga ko'ra) taqdim etishga majbur.

3.6. Benefitsiardan talab olingan taqdirda, Kafolatda belgilangan tartibda, Kafil talab qilingan summani Prinsipalning hisobvaraqlaridan so'zsiz (akseptsiz) hisobdan chiqarish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. Talab qilingan summani Prinsipalning hisobvaraqlaridan hisobdan chiqarish imkoni bo'lmaganda, Kafil Benefitsiarga talab summasini Kafolat shartlariga muvofiq o'z mablag'lari hisobidan to'laydi. Kafil Kafolat bo'yicha talab summasini o'z mablag'lari hisobidan to'laganda, Prinsipal Kafil Kafolat bo'yicha to'langan summalarini qoplash to'g'risida yozma talab qo'ygan sanadan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida Kafilga tegishli summani to'lashga majbur, yoki to'lov uchun mablag' bo'lmagan taqdirda, ushbu bandda belgilangan muddatda qoplash uchun tegishli qisqa muddatli bank qarzi shartnomasini tuzish yo'li bilan to'lovni amalga oshirishga majbur.

Bunda Kafil shunga o'xshash summani Prinsipalning barcha hisobvaraqlaridan uning topshirig'i va rozilgisiz undirishga haqli. Prinsipal Kafil to'lagan summani o'zining qaytarib olib bo'lmaydigan va so'zsiz qarzi deb tan oladi va mazkur qarzni qoplash uchun qarz shartnomasi shartlariga muvofiq so'ndirish majburiyatini oladi.

3.7. Ushbu bilan Prinsipal Kafilga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Prinsipalning biron-bir topshirig'i va/yoki rozilig'ini olmasdan Prinsipalning istalgan hisobvaraqlaridan istalgan valyutadagi pul mablag'larini so'zsiz hisobdan chiqarish huquqini beradi:

- Kafilga Kafolat bo'yicha to'lov talabi qo'yilgan va/yoki Kafil tomonidan qo'yilgan talabga muvofiq Kafolat bo'yicha to'lov amalga oshirilgan taqdirda;

- ushbu shartnoma shartlariga muvofiq Kafil oldida to'lov majburiyatlari yuzaga kelganda.

3.8. Prinsipal Kafilga to'laydi yoki Kafil mustaqil ravishda _____ miqdorda komissiyani hisobdan chiqaradi, agar ushbu shartnomaning quyidagi shartlaridan biri Prinsipalning tashabbusi bilan va Kafilning roziligi bilan qayta ko'rib chiqilsa:

- garov predmetining almashtirilishi;

- qarzning o'tkazilishi.

4. KAFOLATNI BERISH SHARTLARI VA TARTIBI

4.1. Ushbu shartnomaga muvofiq Kafil Prinsipalning iltimosiga ko'ra Prinsipal quyidagi dastlabki shartlarni bajargandan so'ng Benefitsiar foydasiga Kafolatni beradi:

- ushbu shartnomaga muvofiq Kafolatni berish uchun komissiyalarni to'lash;

- ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishini tegishli ta'minlashni taqdim etish.

4.2. Prinsipal tomonidan yuqorida ko'rsatilgan shartlar bajarilgandan va dastlabki shartlar hamda Kafolat matni kelishilgandan so'ng, Prinsipal Kafilga Kafolat berish to'g'risida Kafolat berish uchun Arizani (1-ilova) taqdim etish yo'li bilan yozma topshiriq beradi. Kafolat berish uchun Arizani olganidan, yuqorida ko'rsatilgan barcha shartlar bajarilganidan va barcha tegishli shartnomalar rasmiylashtirilganidan so'ng, Kafil Benefitsiar foydasiga Prinsipal ko'rsatgan ko'rinishda Kafolatni beradi.

5. MAJBURIYATLAR BAJARILISHINI TA'MINLASH

5.1. U shbu Shartnoma bo'yicha Prinsipalning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari bajarilishi quyidagicha ta'minlanadi:

5.1.1. ...

5.1.2. ...

5.2. Prinsipal majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashning bir necha turi mavjud bo'lganda ular bir-biriga zid bo'lmasligi kerak, majburiyatlarni bajarishning har bir usuli mustaqil bo'lib, bir-biriga bog'liq emas. Majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullariga undiruvni qaratish zarurati yuzaga kelganda, tanlash huquqi Kafilda qoladi, u o'z xohishiga ko'ra majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullaridan istalganiga yoki barcha usullariga talab qo'yishi mumkin. Ta'minlash obyektlaridan biriga undiruvni qaratish Kafilni boshqa ta'minlashga ham undiruvni qaratishda cheklamaydi.

5.3. Kafil Prinsipal ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda Garov predmeti qiymatidan Prinsipalning boshqa kreditorlaridan ustun ravishda qondirilish olishga haqli.

5.4. Majburiyatlar bajarilishini ta'minlash bo'yicha hujjatlarni lozim darajada rasmiylashtirish bilan bog'liq har qanday xarajatlarni Prinsipal o'z zimmasiga oladi.

5.5. Prinsipal Kafilning talabiga ko'ra quyidagi hollarda Kafilni qoniqtiruvchi qo'shimcha ta'minlashni taqdim etish majburiyatini oladi:

- ushbu shartnoma bo'yicha taqdim etilayotgan ta'minlashning yo'q qilinishi, qiymatining pasayishi, qisman yoki to'liq yo'qolishi;

- Prinsipalning va/yoki kafilning (kafillik shartnomasi taqdim etilgan taqdirda) moliyaviy holatining yomonlashishi;

- Prinsipalning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik xavfini oshiruvchi boshqa omillarning paydo bo'lishi.

5.6. Prinsipal ta'minlashni Kafolat summasining 125 (bir yuz yigirma besh) foizidan kam bo'lmagan darajada saqlab turish majburiyatini oladi.

5.7. Kafil quyidagi hollarda amaldagi qonun hujjatlari, ushbu shartnoma va ta'minlash shartnomalariga muvofiq ta'minlashga va/yoki uning bir qismiga undiruvni qaratish bo'yicha qaytarib olib bo'lmaydigan va so'zsiz huquqni oladi:

- Kafil tomonidan Kafolat bo'yicha pul summalari Benefitsiar foydasiga to'langan va Prinsipal mazkur summani qoplamagan taqdirda;

- foizlar va/yoki har qanday komissiyalarning to'lanmasligi, Prinsipal tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi.

5.7. Kafil O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Ta'minlash predmetiga yoki uning bir qismiga undiruvni qaratish bo'yicha qaytarib olib bo'lmaydigan va so'zsiz huquqni oladi.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Kafil quyidagi huquqqa ega:

- Prinsipaldan regress tartibida Kafil tomonidan chiqarilgan Kafolat bo'yicha to'langan har qanday summalarni qoplashni talab qilish;

- prinsipaldan prinsipalning moliyaviy-xo'jalik faoliyati holati, buxgalteriya hisobi va hisoboti holati to'g'risida ma'lumot va prinsipalning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga taalluqli boshqa ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilish, shuningdek Prinsipalning xo'jalik faoliyatini tekshirish;

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Kafilga Kafolat bo'yicha to'lov talabi qo'yilgan va/yoki Kafil tomonidan qo'yilgan talabga muvofiq Kafolat bo'yicha to'lov amalga oshirilgan taqdirda, shuningdek ushbu shartnoma shartlariga muvofiq Kafil oldida yuzaga kelgan to'lov majburiyatlari bo'yicha Prinsipalning biron-bir topshirig'i va/yoki rozilig'ini olmasdan prinsipalning istalgan hisobvaraqlaridan istalgan valyutadagi pul mablag'larini so'zsiz hisobdan chiqarish;

- Prinsipal ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini buzgan taqdirda Prinsipalning istalgan hisobvaraqlariga Prinsipalning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur summaga talab qo'yish;

- Prinsipaldan Benefitsiar oldida Asosiy majburiyatning bajarilishi to'g'risida ma'lumot olish;

- Prinsipal bilan birgalikda asosiy majburiyat bo'yicha Benefitsiar bilan to'lovlar va hisob-kitoblar bo'yicha solishtirishlar o'tkazish;

- O'zbekiston Respublikasining «Garov reestri to'g'risida»gi Qonuni va «Garov reestrini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq barcha qabul qilingan garov ta'minlashlarini (sug'urta polisleri va kafilliklar/kafolatlar bundan mustasno) garov reestriga kiritish (o'zgartirish/o'chirish).

- agar bu talab yoki unga ilova qilingan hujjatlar Kafolat shartlariga mos kelmasa, yoki Kafilga Kafolat berilgan muddat tugaganidan keyin taqdim etilgan bo'lsa, Benefitsiarga uning talabini qondirishni rad etishga haqli.

6.2. Prinsipal quyidagi huquqqa ega:

- Kafil bilan birgalikda har oy hisobot sanasi holatiga ko'ra hisobvaraqlar saldosi bo'yicha solishtirishlar o'tkazish;

- Kafildan qo'yilgan to'lov talablari va Benefitsiar foydasiga Kafolat bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha ma'lumot olish.

6.3. Kafil quyidagi majburiyatlarni oladi:

- prinsipalning topshirig'iga ko'ra ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, prinsipal ushbu shartnomada ko'rsatilgan dastlabki shartlarni bajargandan so'ng Kafolatni berish;
- Prinsipal bilan Kafolat shartlari, matni va unga barcha o'zgartirishlarni kelishish;
- Benefitsiarning Kafolat bo'yicha talabini olganidan so'ng bu haqda Prinsipalni kechiktirmay xabardor qilish va unga talab nusxasini barcha unga taalluqli hujjatlar bilan topshirish;
- hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni bank operatsiyalarini amalga oshirishning amaldagi qoidalariga muvofiq amalga oshirish;
- Benefitsiar foydasiga Kafolat bo'yicha uning to'lov talablariga muvofiq to'lovlar amalga oshirilganda Prinsipalni xabardor qilish.

6.4. Prinsipal quyidagi majburiyatlarni oladi:

- Kafilga ushbu shartnomada nazarda tutilgan barcha komissiyalar, foizlar va boshqa to'lovlarni to'lash va Kafilga u Kafolat bo'yicha to'lagan barcha summalarini, shuningdek Kafolat bilan bog'liq boshqa to'lovlar, xarajatlar summalarini qoplash.

- Kafil tomonidan Kafolat bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha ushbu shartnoma shartlariga muvofiq Kafilga foizlarni birinchi navbatda to'lash;

- Asosiy majburiyat bo'yicha to'lov majburiyatlarining to'liq bajarilganligi haqida Kafilni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan o'z vaqtida xabardor qilish;

- Prinsipalning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday muhim noqulay o'zgarish yoki yuzaga kelgan sharoitlar haqida, Prinsipal tomonidan majburiyatlarni bajarmaslikning har qanday mumkin bo'lgan holati haqida, shuningdek o'zining tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish, qayta tashkil etish, tugatish haqida Kafilni oldindan xabardor qilish;

- Kafilga choraklik buxgalteriya balansini barcha ilovalari bilan, Kafilning talabiga ko'ra o'zining xo'jalik-moliyaviy faoliyati to'g'risida boshqa ma'lumotlarni taqdim etish;

6.5. Ushbu shartnoma amal qilish muddati davomida Prinsipal quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

- o'z faoliyatini qonun hujjatlari va umume'tirof etilgan tamoyillar hamda sog'lom amaliyotga muvofiq lozim darajada samarali amalga oshirish;

- o'z mulki, asbob-uskunalari va boshqa mol-mulkini normal holatda saqlash (asosiy fondlardan foydalanish);

- buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini buxgalteriya hisobi va hisobotining amaldagi qoidalariga muvofiq yuritish;

- aylanma mablag'larni belgilangan normativdan past bo'lmagan darajada, shuningdek boshqa moliyaviy koeffitsientlarni (qoplash, likvidlik, avtonomiya koeffitsienti va boshqalar) kafolat berilgan paytda qayd etilgan darajadan past bo'lmagan darajada, agar Kafil boshqacha holatga rozi bo'lmasa, ushlab turish;

- o'zining barcha birlamchi va ikkilamchi hisobvaraqlarini Kafil tizimida saqlash;

- o'z faoliyatini amalga oshirish va ushbu shartnoma shartlarini bajarish uchun barcha zarur ruxsatnoma va litsenziyalarni o'z vaqtida olish va uzaytirish.

6.6. Ushbu shartnoma amal qilish muddati davomida Kafilning oldindan roziligisiz Prinsipal, agar ular Prinsipalning ushbu shartnoma bo'yicha biron-bir majburiyatini bajarish imkoniyatiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatsa, quyidagi harakatlardan birortasini amalga oshirmasligi kerak:

- Boshqa kreditorlardan kreditlar va qarzlarni olish, boshqa shaxslarga kreditlar va qarzlarni berish, uchinchi shaxslarning kreditori oldida kafil (yoki kafolat beruvchi) sifatida chiqish, boshqa banklarda biron-bir hisobvaraqlar ochish;

- Sho'ba korxonalar tashkil etish, o'zining ta'sis hujjatlariga sezilarli o'zgartirishlar kiritish;

- Har qanday qayta tashkil etish va tugatishlarni amalga oshirish;

- O'zining barcha yoki bir qism mol-mulkini uchinchi tomonlarga sotish va boshqa yo'l bilan begonalashtirish, o'tkazish, ijaraga berish;

- O'zining mol-mulki va pul mablag'larini uchinchi tomon foydasiga o'z majburiyatlari bo'yicha ta'minot sifatida garovga berish, ushlab qolish huquqlari va boshqa ustun huquqlarni yaratish;

- Dividendlar to'lash yoki boshqa yo'l bilan foydani taqsimlash (ushbu shartnoma kuchga kirgunga qadar olingan daromadlardan dividendlar to'lash bundan mustasno), boshqa yuridik shaxslarning biron-bir investitsiya qimmatli qog'ozlarini sotib olish;

- Boshqa korxonani yoki uchinchi tomon, kompaniya yoki korxonalar mulkining katta qismini sotib olish.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

7.2. Ushbu shartnomadan kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar, tomonlarning kelishuviga erishilmaganda, amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Kafil joylashgan joy bo'yicha tegishli sudga ko'rib chiqiladi.

7.3. Ushbu shartnoma bilan bog'liq holda yuzaga keladigan har qanday sud jarayonida Kafilning ushbu shartnomaga muvofiq Kafilga tegishli har qanday summa bo'yicha hujjatlari «prima facie» (birlamchi) bunday summalar

Kafilga tegishli va to'lanishi lozimligining dalillari bo'lishi kerak.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

8.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar har qanday shaxslarga ularning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir ko'rsatish maqsadida biror-bir noqonuniy ustunlik yoki boshqa manfaatlar olish uchun bevosita yoki bilvosita biron-bir pul mablag'lari yoki qadriyatlarini to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'lashga ruxsat bermaydilar.

8.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar amaldagi qonun hujjatlari bo'yicha pora berish/olish, tijoriy pora berish/xizmatchini pora bilan sotib olish deb baholanadigan harakatlarni, shuningdek qo'llaniladigan qonun hujjatlari va jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi xalqaro hujjatlar talablarini buzuvchi harakatlarni amalga oshirmaydilar.

8.3. Ushbu Shartnomaning har bir tomoni boshqa tomonni (Bank xodimlarini) biron-bir tarzda, shu jumladan pul summalarini berish, sovg'alar berish, ularning manziliga ishlar (xizmatlar)ni tekin bajarish va boshqa usullar bilan, Bank xodimini ma'lum bir qaramlikka qo'yuvchi va shu Bank xodimi tomonidan uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga biron-bir harakatlar bajarilishini ta'minlashga yo'naltirilgan rag'batlantirishdan voz kechadi.

8.4. Tomonda biron-bir korrupsiyaga qarshi shartlarning buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkinligi haqida shubhalar yuzaga kelgan taqdirda, tegishli tomon boshqa tomonni yozma shaklda yoki ishonch telefoni orqali og'zaki shaklda xabardor qilish majburiyatini oladi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu Shartnoma shartlarining har qanday o'zgarishi Tomonlarning o'zaro roziligi bilan amalga oshiriladi va qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi. Qo'shimcha kelishuvlar ushbu shartnomaning ajralmas qismlari hisoblanadi.

9.2. Agar tomonlardan birortasi ushbu shartnoma amal qilish davrida biron-bir qayta tashkil etishga, yuridik maqomidagi boshqa o'zgarishlarga uchrasa, ushbu shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va o'zgarishlarga uchragan tomon unda bayon etilgan barcha majburiyatlarni saqlab qolgan holda ushbu shartnomaning huquqiy vorisi hisoblanadi.

9.3. Ushbu shartnoma Shartnomadan mustaqil, va Prinsipal Shartnoma qoidalariga asoslanib Kafilga da'volar qo'ya olmaydi. Prinsipal va Benefitsiar o'rtasida Shartnoma bo'yicha har qanday nizolar Kafil ishtirokisiz mustaqil ravishda ko'rib chiqiladi va hal qilinadi.

9.4. Agar ushbu shartnomaning biron-bir qoidasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga mos kelmay qolsa, u shartnomaning boshqa qoidalari bajarilishiga ta'sir qilmaydi va eng qisqa muddatlarda almashtirilayotgan qoidaning mazmuni va maqsadlariga eng yaqin qoida bilan almashtiriladi.

9.5. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan hollar yuzaga kelganda, ikkala tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.

9.6. Ushbu shartnoma teng yuridik kuchga ega ikki bir xil nusxada, har bir Tomon uchun bittadan asl nusxada imzolangan.

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI, IMZOLARI VA REKVIZITLARI:

«KAFIL»
ATB «Tenge Bank»

«PRINSIPAL»

Manzil: 100007, Toshkent sh.
Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 66-uy
STIR 207297973
MFO 01176
SWIFT Code: HSBKUZ22
Tel: +99871 2038899

Manzil:
STIR
Tel:
Bank rekvizitlari:
Val. hisob: №
v ATB «Tenge Bank»
(bank MFO: 01176)

Birinchi o'rinbosar
Birinchi o'rinbosari

Direktor

Xakimov Sh.X. _____

• _____

Bosh hisobchi v.b.
Xakimdjanova N.A. _____

Bosh hisobchi
• _____

M.O'.

M.O'.